

Date: 17<sup>th</sup> November-2024

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING BOZOR HUDUDLARIDA  
HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINING DOLZARBLIGI**

**A.R.Abdug'afforov**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi  
o'qituvchisi

**Mashrabov Ziyodjon Umidjon o'g'li**

312-guruh kursanti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning asosiy qismi jamoat joylarida ya'ni mahalla hudida joylashgan bozor joylarida sodir etilmoqda. Bu esa mahallasida bozor joylashgan profilaktika inspektorlaridan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Profilaktika inspektorining bozor hududida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha faoliyatining tushunchasi va ahamiyati, o'ziga hos hususiyatlari, tashkiliy-huquqiy asoslari, protsessual jihatlari, rasmiylashtiriladigan hujjatlar, faoliyatini tashkil etish masalalari ushbu ilmiy maqolada yetarlicha yoritib berilgan.

Ilmiy maqolada profilaktika inspektorining bozor hududida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari, profilaktika inspektorining bozor hududida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati bo'yicha taklif tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Annotation:** The relevance of the topic of this article is that most of the crimes are committed in public places, that is, in market places located in the neighborhood. This requires preventive measures to be taken by preventive inspectors in whose neighborhood the market is located. The understanding and significance of the prevention inspector's activity on the prevention of offenses in the market area, its specific features, organizational and legal bases, procedural aspects, documents to be formalized, issues of organization of activities are sufficiently covered in this scientific article.

In the scientific article, the main areas of improvement of the activities of the prevention inspector on the prevention of offenses in the market area, proposals and recommendations on the activity of the prevention inspector on the prevention of offenses in the market area were developed.

Farg'ona viloyati Qo'qon shahridagi kiyim-kechak bozori hududida sotuvchilar o'rtasida janjal sodir bo'ldi. Bu haqda viloyat Ichki ishlar boshqarmasi Matbuot xizmati xabar berdi.

Bozor hududlarida jinoyatchilikka qarshi kurashish va uni oldini olish doimo ustuvor vazifa bo'lib kelgan. Bozor hududlari doimo odamlar gavjumligi bilan ajarialib turadi. Shunday ekan bu yerlarda huquqbuzarliklar sodir etilishi ham yuqori bo'ladi. Buning naqadar dolzarbligini quyidagi holat bo'yicha ham ko'rib chiqsak bo'ladi:



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

Ma'lum qilinishicha, joriy yilning 21 iyun kuni Qo'qon shahridagi kiyim kechak bozori hududida joylashgan do'konlardan birining ish boshqaruvchisi 1990 yilda tug'ilgan ayol do'kon oldida sotuvchilik qilayotgan 41 va 35 yoshli er-xotonga mazkur hududda savdo qilmaslikni aytgan. Ikki tomon bir-birini haqorat qilishi oqibatida janjal kelib chiqqan. Tortishuvga ularning qarindoshlari ham qo'shilgan.

Shuningdek, ertasiga, 22 iyun kuni shu do'konning 1989 yilda tug'ilgan egasi va uning ikki sherigi do'kon oldida kiyim sotayotgan 47 yoshli ayol va uning 14 yashar o'g'li do'konning kirish qismini to'sib qo'yayotganini vaj qilib, ular bilan janjallashgan. Janjal davomida ayolning voyaga yetmagan o'g'liga jarohat yetkazilgan.

Holat yuzasidan Jinoyat kodeksining 277-moddasi (bezorilik) 2-qismi "b" bandi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilayotgani ma'lum qilingan. Tartibbuzarlikka aloqador barcha fuqarolarning shaxslari aniqlangan va tergovga jalb etilgan. Voyaga yetmagan bolaga jarohat yetkazilishi holati bo'yicha sudga oid tibbiyot ekspertizasi tayinlangan.

"Bu kabi huquqbuzarliklarning takrorlanishini oldini olish maqsadida Qo'qon shahar hokimligi, bozor ma'muriyati hamda shahar IIBning mas'ul xodimlari tomonidan bozor hududidagi do'konlar hamda vaqtinchalik yoyma savdo rastalarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar orasida profilaktik tushuntirish ishlari o'tkazildi", deyiladi xabarda.

Jinoyat uchun jazo bergandan ko'ra, uning oldini olgan ma'qulligi umum e'tirof etilgan. Bu –har qanday ijobiy qonunchilikning bosh vazifasidir. Hozirgi vaqtda huquqbuzarliklar va boshqa g'ayriijtimoiy, salbiy hodisalarga nisbatan qo'llanilgan "jinoyatchilikning oldini olish", "profilaktika qilish", "ogohlantirish", "to'xtatish", "barham berish" kabi atamalar nafaqat umumiy adabiyotlarda, balki har xil normativ hujjatlarda, shuningdek vaqtli matbuotda ham ko'p uchraydi.

Profilaktika inspektorlari bozor hududida amalga oshiradigan faoliyatlari doirasida bozor hududida ko'p sodir etiladigan o'g'irlik, talonchilik jinoyatlarining oldini olish va barxam berish faoliyatiga e'tibor qaratmog'i lozim. O'g'irlik talon-tarojning eng ko'p tarqalgan shaklidir. Bunga sabab, avvalo, o'g'irlikni ochish foizlarining unchalik katta emasligi bo'lsa kerak, chunki o'g'irlik yashirin ravishda sodir etiladi, uning ochilishini qiyinlashtiradi. O'g'irlik jinoyatining ob'yekti o'zganing mol-mulkini muhofaza qilish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hisoblanishi lozim.

Shu nuqtai nazardan o'zganing mulkini talon-toroj qilish quyidagi hollarda sodir etilgan bo'lsa, yashirin hisoblanadi:

- 1) sodir etilayotgan qilmishni hech kim kuzatib turmagan bo'lsa va qilmish sodir etilayotgan joyda hech kim bo'lmasa;
- 2) mulk jabrlanuvchi yoki boshqa begona shaxslarga sezdirmasdan olingan bo'lsa;
- 3) mulk olinishini kuzatib turuvchi jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslar sodir etilayotgan qilmishning xususiyati va ahamiyatini tushunmagan bo'lsa;



Date: 17<sup>th</sup> November-2024

4) aybdorning qilmishini kuzatib turgan jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslar sodir etilayotgan qilmishning xususiyatiga to'g'ri baho bersa va tushunsa-da, biroq aybdor ushlab olinmasdan, u o'zining harakatlarini yashirin sodir etyapman deb tasavvur qilsa;

5) aybdorning qilmishini kuzatib turuvchi va o'zining mavjudligini yashirmayotgan u yoki bu shaxslar sodir etilayotgan qilmish xususiyatiga to'g'ri baho bersa va tushunsa-da, biroq ular aybdor uchun begona shaxslar bo'lmasa (yaqin kishilar yoki qarindoshlar).

Shuningdek, ma'muriy hududlarda o'g'irlikning viktimologik profilaktikasiga oid plakatlar osish, shuningdek o'g'irlik jinoyati bo'yicha jurnallar chop yettirish va axoli o'rtasida muxokamadan o'tkazish. Xozirgi kunda g'ayriijtimoiy xulk-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni kelgusida turli xil ma'muriy yoki jinoiy huquqbuzarlik sodir etilishiga yul kuymaslik xamda ularni tuzalish yuliga kaytarish maksadida ularga nisbatan profilaktik chora tadbirlarni amalga oshiradi. SHu jarayonda ularni ushbu g'ayriijtimoiy xulk atvorini davom ettirmaslik yuzasidan Vazirlar Maxkamasi tomonidan ishlab chikilgan rasmiy ogoxlantirish blankasi yordamida rasmiy ravishda ogoxlantiriladi, lekin mol-mulkiga nisbatan etiborsiz, lokayd munosabatda bulgan fuqarolarning profilaktika inspektori tomonidan og'zaki tarizda o'g'irlik jinoyatining kurboniga aylanib kolishining oldini olish maksadida ogoxlantirishiga karamasdan ushbu jinoyatning kurboniga aylanmokda. Ya'ni og'zaki ogoxlantirish choralari uzining tegishli natijalarini bermaganligi sababli yukoridagi muammolardan kelib chikib kuyidagi takliflarni tavsiya etaman.

